

## TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA O'ZBEK AN'ANAVIY IJROCHILIGIDA XALQ CHOLG'ULARINING O'RNI

*Nazarova Dilnoza Eraliyevna,  
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori(PhD).  
Yunusova Mashhura Shamsiddin qizi,  
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 1- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek an'anaviy ijrochiligida xalq cholg'ularining o'rni va ahamiyati, xususan, dutor cholg'usi misolida ularning tarixiy rivoji hamda zamonaviy taraqqiyot strategiyasi tahlil qilinadi. Milliy cholg'ularni asrab-avaylash, rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ'ib etish masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** An'anaviy ijrochilik, dutor, xalq cholg'ulari, milliy musiqqa, taraqqiyot strategiyasi, madaniy meros.

## РОЛЬ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ ТРАДИЦИОННОМ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВЕ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение народных инструментов в узбекском традиционном исполнительстве, в частности, их историческое развитие и современная стратегия развития на примере дутара. Будут рассмотрены вопросы сохранения, развития и продвижения национальных инструментов на международном уровне.

**Ключевые слова:** Традиционное исполнительство, дутар, народные инструменты, национальная музыка, стратегия развития, культурное наследие

## THE ROLE OF FOLK INSTRUMENTS IN UZBEK TRADITIONAL PERFORMANCE WITHIN THE FRAMEWORK OF THE DEVELOPMENT STRATEGY

**Abstract:** This article analyzes the role and significance of folk instruments in Uzbek traditional performance, particularly their historical development and modern development strategy using the dutor instrument as an example. Issues of preserving, developing, and promoting national instruments at the international level will be considered.

**Keywords:** Traditional performance, dutar, folk instruments, national music, development strategy, cultural heritage

O'zbek xalqining boy madaniy merosida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Xalq cholg'ulari esa ushbu san'atning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida milliy cholg'ularni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbek xalqining boy madaniy merosida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Xalq cholg'ulari esa ushbu san'atning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida milliy cholg'ularni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbek xalqining boy madaniy merosida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Xalq cholg'ulari esa ushbu san'atning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida milliy cholg'ularni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Musiqa bu – insonlar hayotining ohanglardagi aks etadi deb ta'riflashadi mashoyixlar. Demak, olamni tasavvur etishda in'ikos etuvchi vositalar ham beozor shaklu-shamoyil, go'zal fazilat, beg'ubor un taratishga qodir bo'lishi shart. Aks holda butun mavjudotlar ichida eng oliy hilqat bo'lgan insonda savt etish yoki o'xshatish hislatining bo'lmasligi muqarrar. Shu bois ham bo'lsa kerak, faqat insongina qo'li gul, tafakkur egasi, ma'naviyatga ega, ijod degan ne'matdan bahramand etib yaratilgan.

Ijod esa musiqa olamini mo'jizakor vositalar bo'lmish sehrlil cholg'ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to'ldirdi. Natijada, bugungi kunda inson hayotini musiqiy cholg'ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Cholg'ular insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagiga aylandi. Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan. O'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg'usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o'ziga xos o'rin topgan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan. O'zbek musiqa merosini o'rganish va uni munosib darajada kelajak avlodga yetkazish azal-azaldan ijrochilik an'analarining "ustozdan-shogirdga" qabilida amalga oshirib kelinayotgan mezonidir.

"Ustoz-shogird" an'anasi asosidagi an'anaviy musiqa sabog'ini ta'lim tizimida qaror topishi zamonaviy ta'limning eng ahamiyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Buni uzluksiz ta'lim tizimi doirasida shakllantirish, hamda uni har bir bosqich talablari asosida tartiblash avvalo bilimli mutaxassis tayyorlashning zamini, qolaversa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-son madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarorida belgilangan

qaroribarcha musiqa fani o'qituvchilariga shijoat bag'ishladi. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishida musiqa fani o'qituvchilari faollikni qo'lga olishgan. Shu jumladan BMSM o'qituvchilari xam jonbozlik ko'rsatmoqdalar. O'quvchilarga musiqa cholg'u asbobini o'rgatish uzoq muddat shug'ullanishni va shunga mos munosabatni talab etadi. Albatta, cholg'u ijrochiligida uning texnik o'zlashtirish darajalarini ta'limning boshlang'ich va o'rta bo'g'inlarida o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi, ijrochi kasbni o'zlashtirish jarayonida asarni ham tarkiban, ham ma'nadan idrok etishi va tushungan holda talqin etish ko'nikmalarini hosil qilishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek an'anaviy ijrochiligida xalq cholg'ulari nafaqat musiqa vositasi, balki madaniy identitetning muhim elementi hisoblanadi. Ular orqali xalqning tarixi, urf-odatlar va estetik qarashlari aks ettiriladi.

### **Xalq cholg'ularining tarixiy shakllanishi Dutor misolida**

Dutor ikki torli xalq cholg'usi bo'lib, u asrlar davomida rivojlanib kelgan. Dastlab oddiy shaklda bo'lgan bu cholg'u bugungi kunda professional sahna asbobiga aylangan. Dutor nafaqat O'zbekistonda, O'rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg'uda milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin. Dutor asarlarni mustaqil o'rganish va ularni ongli ravishda o'zlashtirish, ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo'ladi.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan - O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O'zbekiston hududida keng tarqalgan cholg'ular xususida to'xtaladigan bo'lsak, shulardan biri dutordir. Uning juda qadimiyligidan darak beruvchi, Tuproq qal'a (miloddan avvalgi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg'ularning keyinchalik dator, dombra va qo'biz shaklida takomillashganligini ko'rsatadi. Bu cholg'ular tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi. Ular qovurg'ali o'yima dator va o'yib ishlangan dator bo'lgan. Qopqog'i esa tut yog'ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlar tori sozlanishi bo'yicha kichik oktava "re" notasidan, katta oktava "sol" yoki "lya", ba'zan esa qo'shtor qilib ham sozlanadi. Bu cholg'u o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Dutor ijrochiligi ustoz-shogird an'anasi orqali rivojlanib, yangi ijro uslublari bilan boyib bormoqda. Dutor cholg'usi boshqa cholg'ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho'xchan taronalari bu cholg'uda o'zgacha jarang topadi.

Jo'rnovozlikda "dutor" va "tanbur" cholg'ulari ijrosidagi kuylar bir biriga hamohangdir. Xususan, bu cholg'ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'ular bir birini shunday to'ldiradiki, ulardan go'zal yangi bir ohang paydo bo'ladi.

Dutor cholg'usining yana bir muhim jihati shundaki, bu sozda yakka ijro qilinganda o'ng qo'ldagi zarblarning "usul beruvchi" vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo'ladi. O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dator, g'ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg'u asboblari mavjud. Cholg'ularning takomillashuvi ularning ovozigina, ovoz diapazoniga, shakllariga ta'sir ko'rsatgan. Dutor cholg'usi manbalarda yozilishicha deyarli o'zgarmagan. Qadimda dator cholg'usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo'lsa kerak, Dutor sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o'zgarmastan yetib kelgan. Farg'ona-Toshkent vohasining dator ijrochilik uslublari ham juda rang-barang ekanligini aytib o'tish lozim. Chunki, bu vohada ijro uslublari ko'p. Faqat Qo'qon dator ijrochilik maktabining o'zigina, o'ziga xos an'analar bilan sug'orilgan. Bu an'analarni birgina «Qo'qoncha» asarida ham ko'rish mumkin. Dutorning shaxdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o'ng qo'llar mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining mag'zi hisoblanadi. Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Farg'ona-Toshkent vohasida biz ko'pgina shaxsiy dator ijrochilik uslublari shakllanganining guvohi bo'lamiz. Bugungi kun yoshlari dator ijrochiligining tamal toshlari bo'lmish buyuk ustozlar nomini har vaqt yodlarida saqlashi lozim.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 76-maqsadida madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Soha vakillari, ijodkorlar, professor-o'qituvchi va xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

- teatr san'atini rivojlantirish;
- madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish;
- hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish;
- o'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish;
- atoqli ijodkor ziyolilar hayoti va faoliyatini targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish;
- aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish.

Xalq cholg'ularini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

An'analarni saqlash; Ta'lim tizimini rivojlantirish; Innovatsiyalarni joriy etish;- Xalqaro miqyosda targ'ibot; Yosh avlodni qo'llab-quvvatlash.

### **Zamonaviy davrda rivojlanish**

Hozirgi kunda xalq cholg'ulari nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy musiqada ham qo'llanilmoqda. Bu esa ularning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy davrda o'zbek xalq cholg'ularining rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarilib, ular milliy va jahon musiqa madaniyatida muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, dutor cholg'usi misolida bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi. Dutor o'zining qadimiy an'alariga tayangan holda bugungi kunda zamonaviy ijrochilik talablari asosida takomillashib bormoqda. Hozirgi kunda u musiqa maktablari, kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida keng o'qitilib, professional ijrochilar tayyorlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dutor ijrochiligida yangi uslublar shakllanib, an'anaviy chertma uslubi zamonaviy ijro elementlari bilan boyitilmoqda.

Zamonaviy musiqiy jarayonda dutorning estrada, pop va simfonik janrlar bilan uyg'unlashuvi uning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bu esa yosh avlodning milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni zamonaviy sahnaga olib chiqmoqda. Texnologik taraqqiyot ham dutor rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatib, ovoz kuchaytirgichlar bilan jihozlangan zamonaviy dutor turlari yaratilmoqda. Natijada cholg'uning akustik imkoniyatlari kengayib, katta sahnalarda ham samarali qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, dutor xalqaro miqyosda ham tobora keng tarqalib, turli festivallar va madaniy tadbirlarda yangramoqda. Bu jarayon milliy musiqamizning jahon sahnasiga chiqishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, zamonaviy davrda dutor cholg'usi an'anaviylik va yangilanish uyg'unligida rivojlanib, o'zbek xalq cholg'ularining taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek an'anaviy ijrochiligida xalq cholg'ulari, xususan dutor cholg'usi muhim o'rin egallaydi. U nafaqat musiqa vositasi, balki xalqning boy ma'naviy merosi, tarixiy tajribasi va estetik qarashlarining yorqin ifodasidir. Dutor misolida ko'rish mumkinki, milliy cholg'ular asrlar davomida shakllanib, ustozshogird an'anasi asosida rivojlanib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Zamonaviy taraqqiyot strategiyasi doirasida xalq cholg'ularini rivojlantirish an'analarni saqlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda xalqaro miqyosda targ'ib qilish kabi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy musiqa san'atiga jalb etish va ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, dutor cholg'usining zamonaviy musiqa janrlari bilan uyg'unlashuvi uning imkoniyatlarini kengaytirib, milliy musiqa san'atining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qilmoqda. Natijada, xalq cholg'ulari milliy o'zlikni saqlash bilan birga, global madaniy makonda ham o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Demak, o'zbek an'anaviy ijrochiligida xalq cholg'ularining o'rni beqiyos bo'lib, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish kelajak avlod oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rajabov I. *O'zbek xalq musiqa san'ati tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. Matyoqubov O. *Maqomot*. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Fitrat A. *O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi*. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Qodirov R. *O'zbek xalq cholg'ulari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
5. Ismoilov T. *An'anaviy ijrochilik asoslari*. – Toshkent: San'at, 2010.
6. To'xtasinov S. *Musiqqa nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Musiqqa, 2015.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori.
8. O'zbek milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000–2005.
9. <https://share.google/F4HzOKIqNunn18LMo>
10. <https://scientific-jl.com/ped/article/download/20685/20154/40389>
11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
13. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)